- kiyimlarning chuvalib ketmasligi uchun ulardagi zanjirsimon yopqichlarini berkiting, erkin osilib turgan iplari va mayda qismlarini mahkamlang. Zarur bo'lsa ularni yuvish uchun maxsus xaltacha va to'rlardan foydalaning.
- dastur tugagandan so'ng elektr energiyasini tejash va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida mashinani doimo elektr tarmog'idan uzing.
- lyukning pastki qismini doimo toza tuting; yoqimsiz hid paydo boolmasligi uchun mashina ishlatilmaydigan paytda uning eshikchasini va yuvish vositasi konteynerini ochib qo'ying.
- agar elektr simi shikastlangan bo'lsa u faqat ishlab charuvchining o'zi, uning xizmat ko'rsatish bo'yicha namoyandasi yoki boshqa malakali mutaxassis tomonidan almashtirilishi lozim.

Yo'l qo'ymang



- yuvish davomida eshikchaga tegishga – u issiq bo'lishi mumkin.
- mashina ustiga og'ir predmetlar, issiqlik yoki namlik manbalarini qo'yishga.
- rezina yoki porolon materiallar bilan issiq yuvishga.
- kir yuvish jarayoni davomida yuvish vositasi konteynerining ochilishiga.
- eshikchani kuch bilan ochishga – u maxsus qulf bilan jihozlangan va yuvish davri to'xtagandan so'ng bir ozdan keyin ochiladi.
- agar lyukda suv sathi ko'rinsa eshikchani ochishga.
- ish davomida yoki undan keyin mashinaning ustini yopishga – kondensat va namlik bug'lanishi kerak.

Buyumning tavsifi




UZB

Ushbu sxema siz xarid qilgan kir yuvish mashinasi ko'rinishidan birmuncha farq qilishi mumkin.

- | | |
|---|------------------------------------|
| 1 Yuvish vositasi/kiyim konditsioneri uchun konteyner | 1 Transportirovka boltlari (T1-T4) |
| 2 Eshikcha | 2 Orqa qopqoq |
| 3 Yuqori qopqoq | 3 Orqa qopqoq vintlari (S1-S4) |
| 4 Eshikcha dastachasi | 4 Elektr simi |
| 5 Boshqarish paneli | 5 Suv ta'minoti klapani |
| 6 «Yoqish/O'chirish» tugmachasi | 6 Suv to'kish shlangi |
| 7 Xizmat ko'rsatish lyukchasi | |

Juz'iy qismlar

Juz'iy qismlar to'plami va ro'yxat bo'yicha hujjatlarning to'raligini tekshirib ko'ring.




Yig'ilgan suv toldirish shlangi

tiqinlar

suv to'kish shlangi kronshteyni

foydalanuvchi dasturamali

Boshqarish paneli




- 1 Yuvish vositasi uchun konteyner
- 2 Displey
- 3 Dasturlar selektori
- 4 «Start/Pauza» tugmachasi
- 5 «Yoqish/O'chirish» tugmachasi
- 6 Funktsiyalar tugmachalari

- a Funksiya
- b Tanlash
- c Ishga tushishni (yuvish tugashini) kechiktirish

Yuvish vositasi konteyneri

Bo'linmacha 1: faqat suv quyiqing, yuvish vositasini ishlatmang.
Bo'linmacha 2: Asosiy (tez) yuvish vositalari uchun, Siqisg/Suvni to'kish dasturidan tashqari.

Bo'linmacha 3: kirlarni parvarishlash vositalari uchun mo'ljallangan (kraxmallovchi, yumshatuvchi, xushbo'y hid beruvchi va hokazo).
Ma'lum bir yuvish haroratiga mos keluvchi yuvish vositasini tanlash bo'yicha tavsiyalar bilan yuvish vositasidan foydalanish dasturamalida tanishishingiz mumkin.



Displey

Mashina yoqilganda displeyda olti hududga bo'lingan joriy holat haqidagi ma'lumotlar yorishadi (quyida qarang). Ish davomida dasturlar selektori buralgunga qadar displey bir oz vaqtdan so'ng o'chadi (energiyani tejash tartibiga o'tadi).

Dasturlar selektori

16 dasturdan birini tanlash dastachani burash bilan amalga oshiriladi; dastur tanlanganda tegishli yorug'lik diode yonadi va displeyda dastlabki sozlar ko'rinadi.

«Start/Pauza» tugmachasi


Displeyda ko'rinib turgan dasturni ishga tushirish yoki to'xtatish uchun shu tugmachani bosing. Dastur bajarilib turgan vaqtda unung belgisi doimo yonib turadi, agar dastur to'xtatilsa – belgi miltirab turadi.

«Yoqish/O'chirish» tugmachasi

Mashinani yoqish uchun ushbu tugmachani bosing. Bunda display ham yoqiladi. Ochirish uchun esa shu tugmachani bosib 2 soniya davomida ushlab turing. Agar yoqilgandan bir ozdan so'ng paneldagi biror qism yoki dastur faollashtirilmasa, mashina avtomatik tarzda o'chadi.

Boshqarish paneli

Haier kompaniyasi eng yaxshi natijalarga erishish maqsadida har bir dastur uchun eng qulay sozlarni ishlabchiqdi. Agar hech qanday maxsus talabotlar bo'lmasa, birlamchi sozlardan foydalanish tavsiya qilinadi. Zavod dasturlari va qo'shimcha funksiyalar parametrlarining ko'pchiligini individual tarzda o'zgartirish mumkin («Dasturlar» bo'limi va funksiyalar tugmachalari ta'riflarga qarang.



«Funksiya» (a tugmachasi)

Ketma-ket ochish yo'li bilan funksiyalar va sozlamni tanlash uchun ushbu tugmachani bosing. Bunda tegishli belgichalar yonadi.

«Tanlash» (b tugmachasi)

Joriy tanlangan funksiyaga o'tish uchun bu tugmachani bosing, tegishli belgi yonib o'chay boshlaydi. Bu bilan bir vaqtda «qushcha», «1»/«2» yoki ifoslanish darajasi belgilaridan biri yonadi. Tanlangan funksiya 3 soniyadan so'ng yoki «Funksiya» tugmachasi bosilgandan so'ng faollashadi.

«Bolalardan saqlash» — boshqarish panelini qulflash tugmachasi (a + b tugmachalari)

Ushbu funksiya boshqarish panelidagi barcha elementlarning bexos ishga tushirilishi uchun mo'ljallangan. Ishga tushirgandan so'ng «Funksiya» + «Tanlash» tugmachalarini birdaniga bosib 3 soniya davomida ushlab turing. Panelni qulflash belgisi paydo bo'ladi. Qulfni ochish uchun bu amallarni takroran bajarung.



«Ishga tushirishni kechiktirish» — Yuvish tugashini kechiktirish (c tugmachasi)

Bu tugmachani bosganingizdan so'ng displeyda tegishli belgi yonib joriy dasturning tugash vaqti ko'rsatiladi. Yuvish davrining ishga tushishi dastur sozlariga bog'liq vaqtgacha kechiktiriladi. Dasturlar selektorini har bir buraganingizda yuvish vaqti 30 daqiqaga uzayadi. Masalan, «6:30» davming 6 soat 30 daqiqadan so'ng tugashini anglatadi. Bu tartibni «Siqish/Suvni to'kish» dasturida ishlatib bo'lmaydi.

Izoh: yuvishning tugash vaqti doimo dastur bajarilish vaqtidan ko'proq bo'lishi lozim. Aks holda jarayon tugash vaqtini ta'minlash imkoni bo'lmasa ham darhol ishga tushadi.

Boshqarish paneli



Umumiy ma'lumot va maslahatlar:

har qanday belgilangan sozlarni bekor qilish uchun dasturni boshqasiga o'tkazing yoki «Yoqish/O'chirish» tugmachasini 3 soniya davomida bosib turing. Ishlab turgan dasturni to'xtatish uchun «Start/Pauza» tugmachasini bosib, so'ngra «Yoqish/O'chirish» tugmachasini 3 soniya davomida bosib turing.


Dasturlar

Dasturlar jadvali

1:

2: Asosiy (tez) yuvish vositalari ucun, Siqish/Suvni to'kish dasturidan tashqari

3: Kiyimlarni parvarishlash vositalari uchun mo'ljallangan (kraxmallovchi, yumshatuvchi, hushbo'y hid beruvchi va hokazo)



2 3 1

Dastur	Maks. harorat	Dastl. sozlar	2	3	1	Tola turi	Dast. Sozl. Siqish tezligi HW60-10266A HW60-12266AS
1 Qaynatish	--	95°C	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	Paxta/Sintetika	1000 ay/daq
2 Jinsi mato	0-60 °C	40°C	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	Jinsi mato	1000 ay/daq
3 Sport kiyimi	0-40 °C	30°C	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	Sport kiyimi	1000 ay/daq
4 Ichki kiyim	0-60 °C	40°C	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	Ichki kiyim	1000 ay/daq
5 Jun	0-40 °C	--	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	Junli gazlama	600 ay/daq
6 Aralash yuvish	0-60 °C	40°C	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	Paxta/Sintetika	1000 ay/daq
7 Sintetika	0-60 °C	30°C	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	Kimyoviy tolali mato	1000 ay/daq
8 Paxta	0-90 °C	30°C	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	Paxta/Sintetika	1000 1200 ay/daq
9 Kundalik yuvish	0-40 °C	30°C	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	Paxtali gazlama	1000 ay/daq
10 Oq kiyimlar	0-60 °C	40°C	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	Paxta/Sintetika	1000 ay/daq
11 Tex yuvish ^{15'}	0-30 °C	20°C	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	Paxta/Sintetika	800 ay/daq
12 Bolalar kiyimi	0-90 °C	60°C	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	Paxta/Sintetika	1000 ay/daq
13 Nozik yuvish	0-40 °C	30°C	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	Shoyi yoki jun	800 ay/daq
14 Qo'lda yuvish	0-40 °C	30°C	<input checked="" type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	Paxtali gazlama	1000 ay/daq
15 Siqish/Suvni to'kish	--	--	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	--	1000 1200 ay/daq
16 Tozalash	--	90°C	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	--	1000 ay/daq

Ha

Qo'shimcha

Yo'q

Xarajatlar parametrlari

Quyida keltirilgan ko'rsatkichlar mahalliy sharoitlarga qarab o'zgarishi mumkin.

HW60-12266AS
HW60-10266A

Dastur	Maksimal yuklash, kg	Elektr energiyasi kVt.s	Suv l	Harorat °C	Yuvish vaqti s:daq	Siqish samarasi %
Qaynatish	2	2,00	36,0	95	2:41	---
Jinsi mato	4	0,56	40,0	40	1:36	---
Sport kiyimi	2	0,26	35,0	30	0:43	---
Ichki kiyim	4	0,50	40,0	40	1:33	---
Jun	1	0,10	50,0	--	0:47	---
Aralash yuvish	4	0,56	34,0	40	1:28	---
Sintetika	4	0,25	46,0	30	1:18	---
Paxta 40°C*	3	0,52	32,1	40	2:28	53/62
Paxta 60°C*	3	0,74	32,8	60	2:48	53/62
Paxta 60°C*	6	0,73	43,3	60	2:48	53/62
Kundalik yuvish	4	0,58	46,0	40	1:47	---
Oq kiyimlar	2	0,60	45,0	40	1:35	---
Tez yuvish 15'	1	0,20	20,0	20	0:15	---
Bolalar kiyimi	4	2,00	67,5	90	1:15	---
Nozik yuvish	1	0,25	50,0	30	0:46	---
Qo'lda yuvish	2	0,25	36,0	30	0:53	---
Siqish/Suvni to'kish	6	0,10	---	--	0:10	---
Tozalash	---	1,80	15,0	90	1:34	---



Umumiy ma'lumot va maslahatlar:

O'z DSt 3017:2015 Standartiga muvofiq energiya iste'mol qilishi toifasi uchun standart dastur:

Paxta 60°J/40°J maksimal belgilangan siqish tezligi va faollashtirilgan jadal yuvish funksiyasida (3 daraja) (faqat suv quyung, yuvish vositasini solmang).

Paxta uchun 60°C va 40°C haroratda yuvish dasturi tabiiy ifloslangan paxta kiyimlar uchun yetarlichadir. Bu dasturlar paxta kiyimlarni yuvishda elektr energiyasi va suv sarflash muvozanati nuqtai nazaridan eng samarali hisoblanadi. Suvning asl harorati ish davrida belgilangandan birmuncha farq qilishi mumkin.

ENERGY EFFICIENCY CLASSIFICATION	
A	0,12
B	1200
C	6,0
D	46
E	50
F	75
G	


ENERGY EFFICIENCY CLASSIFICATION	
A	0,12
B	1000
C	6,0
D	46
E	50
F	75
G	

Kundalik ishlatish

Mashina faqat ichkarida maishiy maqsadlarda foydalanishga mo'ljallangan. Tijorat, sanoat va boshqa har qanday maqsadlarda ishlatilsa Haier shirkatining kafolat majburiyatlari bekor qilinadi. Har qanday buyumni yuvishda doimo uning yorlig'idagi yuvish tavsiyalariga e'tibor bering va mashida yuvishga moslashgan narsalarni yuving.

Elektr ta'minoti

Kir yuvish mashinasini elektr tarmog'iga ulang (220-240 V o'z.g. tok, 50 Gs).




Suv ta'minotini ulash

Kranni oching. Suv toza va shaffof bo'lishi kerak.



Diqqat!

Ishlatishdan kranni ochib suv sirg'imasligini tekshirib ko'ring.




Kirni tayyorlash

Kirlaringizni mato tolasi turi (paxta, sintetika, jun, shoyi) va ifloslanganlik darajasiga qarab ajrating.


Oq kiyimlarni ranglilaridan alohida qiling. Rangli kiyimlarni avval qo'lda yuvib ularning rangi o'chishi va buzilishini tekshirib ko'ring. Choksiz kiyimlar qismlari, nozik matolar va nafis to'qimali matolarni, masalan, yupqa pardalarni ehtiyotkor ishlov beruvchi maxsus kir yuvish xaltachasiga solish lozim (ular uchun qo'lda yuvish yoki quruq tozalash ayni muddao bo'ladi). Zanjirsimon yopqich va ilgaklarni berkiting, tugmalarning mustahkam tikilganligini tekshiring; paypoqm byustgalter, belbog'lar va shunga o'xshash mayda narsalarni yuvish xaltachasiga soling.

Choyshab va yoping'ichga kabi katta narsalarni mashinaga solishdan oldin yoying. Kiyimlarni teskari ag'daring. Cho'ntaklardan mayda jismlarni (kalit, tanga va hokazo) oling va qattiq taqinchoqlarni (masalan to'g'nag'ich) yechib oling.



Diqqat!

To'qilmagan qismlar, shuningdek mayda, yaxshi mahkamlanmagan va o'tkir narsalar kiyimlar va mashinaning buzilishiga olib kelishi mumkin.



Foydalanish uchun qo'llanma

Yuvish mashinasi «HAIER»
HW60-B12266AS, HW60-B10266A




Mashinani yuklash

Eshikchani ochib kirlaringizni birma-bir mashinaga soling. Me'yordan ortiq kir solmang. Solingan kirlar ustidan qo'l sig'ishiga ishonc hosil qiling. Eshikchani ohista yoping.



Umumiy ma'lumot va maslahatlar:

O'rnatgandan keyin yoki uzoq vaqt bekor turgandan so'ng avvalo mashinaga kir solmasdan, lekin yuvish vositasi konteyneriga (2) yuvish vositasi solib to'planib qolgan cho'kindilardan tozalash uchun «Tozalash» dasturini ishga tushiring.




Yuvish vositasini tanlash

Kir yuvilishining samarasi va sifati ishlatiladigan yuvish vositasiga bog'liq. Faqatgina kir yuvish mashinalarida ishlatishga mo'ljallangan yuvish vositalaridan foydalaning, ba'zi hollarda esa maxsus vositalar, masalan sintetik va junli matolar bilan ishlatishga mo'ljallangan vositalardan foydalaning. Doimo yuvish vositasi ishlab chiqaruvchisi tavsiyalariga rioya qiling.



Umumiy ma'lumot va maslahatlar:

Navbatdagi yuvish davridan oldin yuvish vositalari qoldiqlarini tozalab tashlang. Yuvish vositasi qadog'ida miqdor tavsiyalariga rioya qiling.



Yuvish vositasini solish

Novchani tortib chiqaring va yuvish vositasini soling, shuningdek kraxmallovchi, yumshatuvchi yoki xushbo'y hid beruvchi vositalarni tegishli bolinmachalarga soling.

Kundalik ishlatish


Dasturni tanlash

Eng yaxshi natijalarga erishish uchun kirning turi va ifloslanish darajasiga muvofiq keladigan yuvish dasturini tanlang. Tegishli dasturni tanlash uchun selektor dastacasini burang.




Optsiyalarni tanlang

Tegishli optsiyalarni tanlang. Выберите требуемые опции («Boshqarish paneli» bo'limiga qarang).




Kir yuvish dasturini ishga tushiring

Ishga tushirish uchun «Start/Pauza» tugmachasini bosing. Mashina belgilangan optsiyal bo'yicha ishlashni boshlaydi. O'zgarishlarni faqat yuvish dasturini bekor qilgandan so'ng kiritish mumkin. Dasturni bajarish davri tugashi bilan displeyda «End» («Tugadi») chiqadi, bundan so'ng mashina avtomatik ravishda o'chadi.



Yuvish dasturini to'xtatish — bekor qilish

Ishlab turgan dasturni to'xtatish uchun. Qayta ishga tushirish uchun shu tugmachani yana bir bor bosing. Ishlab turgan dastur va uning barcha individual sozlarini bekor qilish uchun «Start/Pauza» tugmachasini bosing, undan so'ng esa «Yoqish/O'chirish» tugmachasini bosib 3 soniya davomida ushlab turing.




i Umumiy ma'lumot va maslahatlar:

Dastur sozlarini diqqat bilan tanlang, bunda har bir buyumning yorlig'idagi belgilarga e'tibor bering.

Yuvish davri tugagandan so'ng kiringizni mashinadan g'ijmlamasdan chiqarib oling.





























Yuvgandan so'ng

Suv ta'minotini o'chirib elektr shtepselini rozetkadan sug'uring. Kondensat va hidlar paydo bo'lmasligi uchun mashinaning eshikchasini oching. Mashina ishlatilmaydigan davrda eshikchani ochiq qoldiring.



Kundalik ishlatish


Buyumlarning fabrika yorlig'idagi yuvish dasturamallari

Yuvish		
 Yuvishning maksimal harorati 95°C — oddiy jarayon	 Yuvishning maksimal harorati 60°C — oddiy jarayon	 Yuvishning maksimal harorati 60°C — ehtiyotkor jarayon
 Yuvishning maksimal harorati 40°C — oddiy jarayon	 Yuvishning maksimal harorati 40°C — ehtiyotkor jarayon	 Yuvishning maksimal harorati 40°C — o'ta ehtiyotkor jarayon
 Yuvishning maksimal harorati 30°C — oddiy jarayon	 Yuvishning maksimal harorati 30°C — ehtiyotkor jarayon	 Yuvishning maksimal harorati 30°C — o'ta ehtiyotkor jarayon
 Qo'lda yuvish maks. harorat 40°C	 Yuvilmasin	
Oqartirish		
 Har qanday oqartirgich oqartirish mumkin	 Faqat kislorodli / A xlorsiz	 Oqartirilmasin
Barabanda quritish		
 barabanda quritish mumkin odatdagi harorat	 barabanda quritish mumkin past harorat	 Barabanda quritilmasin
 Arqonda quritish	 Yuzada quritish	
Dazmollash		
 dazmolning maksimal harorati 200°C da dazmollash	 dazmolning maksimal harorati 200°C da dazmollash	 dazmolning maksimal harorati 100°C da bug'siz dazmollash (bug' bilan dazmoolansa buyumning tiklanib bo'lmas darajada buzilishiga olib kelishi mumkin)
 Dazmollanmasin		
Matoni kasbiy parvarishlash		
 Tetraxloretilenda kasbiy quruq tozalash	 Karbonsuvlarda kasbiy quruq tozalash	 Quruq tozalanmasin
 Kasbiy namlab tozalash	 Kasbiy namlab tozalanmasin	

Parvarish Va Tozalash

Yuvish vositalari konteynerini tozalash

Konteynerni yuvish vositalari qoldiqlaridan muntazam tozalab turing. Konteynerni oxirigacha tortib (1) fiksator tugmachasini bosib (2) uni chiqarib oling. Bundan so'ng konteynerni yuvish vositalaridan to'la toza bo'lgunga qadar yuvib tozalab qaytadan mashinaga o'rnatg.




Mashinani tozalash

Mashinani tozalash va xizmat ko'rsatishdan oldin elektr ta'minoti kabelini uzing. Mashinaning korpusi va rezina qismlarini tozalash uchun muloyim mat ova sovunli eritmadan foydalaning. Organik ximikatlarda va agressiv erituvchilarni ishlatmang.



Umumiy ma'lumot va maslahatlar:

O'ratgandan so'ng yoki uzoq vaqt bekor turgandan keyin avvaliga kirni solmasdan, lekin yuvish vositasini solib (2) to'planib qolgan cho'kindilardan tozalash uchun «Tozalash» dasturini ishga tushiring.



Ekologik xavfsizlik




Elektr energiyasi, suv, yuvish vositasi va vaqtning optimal sarflanishini ta'minlash uchun maksimal yuklash miqdoriga oid tavsiyalarga rioya qilish lozim.

Ximikatlarning tavsiya qilingan miqdordan ortiq solmang. Mumkin bo'lgan eng past kir yuvish haroratini tanlang. Zamonaviy yuvish vositalari 60°C dan past haroratda yuvish samarasini ta'minlaydi.

Yuqori ko'rsatkichlardan faqat haddan tashqari ifloslanganlik hollaridagina foydalaning.

Kir yuvilgandan so'ng quritishni eng yuqori tezlikda amalga oshirish tavsiya qilinadi.

Parvarish Va Tozalash



Nasos filtri



Nasos filtrini muntazam tekshiring; agar mashina

- Suvni to'kmasa,
- Barabani aylanmasa,
- Ishlash paytida g'alati ovoz chiqarsa.



Diqqat!


Issiq suvdan kuyib qolish xavfi bor! Nasos filtridagi suv juda issiq bolishi mumkin! Har qanday ishni amalga oshirishdan oldin suv soviganligiga to'la ishonch hosil qiling.



1. Mashinani o'chirib uni elektr tarmog'idan uzing.
2. Xizmat ko'rsatish lyukchasini oching. Uni tanga yoki otvortka bilan ilintirib ochish mumkin.
3. Uning tagiga suv qoldiqlarini to'kish uchun biror yassi konteyner qo'ying.


Suv ko'p qolgan bo'lishi mumkin!

4. Suv to'kish quvurchasini tashqariga tortib chiqarib uning uchini konteyner ustida ushlab turing.
5. Suv to'kish quvurchasidan tiqinni oling.
6. Suv butunlay oqib bo'lgandan so'ng nasos filtrini soat millari yo'nalishiga qarshi tomonga burab yechib oling.
7. Begona jismlar va iflosliklarni olib tashlang.
8. Oqar suv tagida nasos filtrini mukammal tozalab yuing.
9. Filtni qayta joyiga o'rning.
10. Suv to'kish quvurchasini berkiting va uni qaytadan mashinaga joylashtiring.
11. Xizmat ko'rsatish lyukchasini yoping.



Diqqat!


Nasos filtri qopqog'i toza va shikastlanmagan bo'lishi lozim. Agar u yaxshi burab qo'yilmagan bo'lsa suv sirg'ib chiqishi mumkin.



Parvarish Va Tozalash


Suv ta'minoti klapani va suv ta'minoti filtri

Suv ta'minotining begona qismlar bilan to'silishidan saqlanish maqsadida suv ta'minoti filtrini muntazam tozalab turish lozim.




Bekor turish davri

Agar mashina uzoq vaqt davomida ishlatilmaydigan bo'lsa elektr shtepselini (1) rozetkadan sug'irib suv ta'minotini (2) berkiting. Kondensat va hidlar paydo bo'lishining oldini olish uchun eshikchani ochib, uni mashinaning bekor turish davri mobaynida ochiq qoldiring.




Navbatdagi ishlatishdan oldin elektr ta'minoti simi, suv ta'minoti shlangi va suv to'kish shlangini tekshiring. Ularning to'g'ri ulanganligi va suv sirg'imayotganligiga ishonch hosil qiling.



Nosozliklarni Aniqlash Va Bartaraf Qilish

Displaydagi ramz

Ramz	Sababi	Hal qilish
1:25	Kir yuvish davrining qolgan vaqti.	Qo'shimcha belgilarga qarang.
19:30	Kir yuvish davrining qolgan vaqti.	Aniqrog'i, ishga tushirishni kechiktirish vazifasi faollashtirilgan — tegishli belgiga qarang.
Lock	Barabandagi suvning yuqori sathi yoki yuqori haroratda bo'lganligi sababli eshikchani ochib bo'lmaydi.	Dasturning nihoyasiga yetishini kutib turing, yoki uni bekor qilib suvni to'kish dasturini ishga tushiring. Agar bak ichidagi suv issiq bo'lsa, kuyishdan saqlanish uchun bir necha daqiqaga qo'lda yuvish dasturini ishga tushirib, so'ngra suvni to'kish dasturini ishga tushiring.
End	Dasturning tugashi.	
E1	Suv to'kishdagi xatolik, suv ketmagan.	Nasos filtrini tozalang. Suv to'kish shlangi tozaligi va to'g'ri o'rnatilganligini tekshiring.
E2	Eshikcha qulflanishidagi xato.	Eshikchani mahkam yoping.
E4	8 daqiqa davomida suv to'lmayapti.	Suv ta'minoti mavjudligi va suvning bosimini tekshiring. Suv to'kish shlangi orqali suv sifon effekti natijasida to'kiladi
E8	Suv sathi himoyasi bo'yicha xato.	Auto chiqarilgan, aks holda sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish bo'limiga murojaat qiling.
F3	Harorat ko'rsatkichi xatosi.	Sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish bo'limiga murojaat qiling.
F4	Isitish xatosi (davring oxirida paydo bo'ladi).	Sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish bo'limiga murojaat qiling.
F7	Dvigatel xatosi.	Sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish bo'limiga murojaat qiling.
FA	Suv sathi ko'rsatkichi xatosi.	Sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish bo'limiga murojaat qiling.
Unb	Muvozanatlanmagan yuklanish, siqishni bajarib bo'lmaydi.	Kirlarni yanada bir maromda tarqating, yoki bakdan kirlarning bir qismini olib tashlang, agar juda ko'p kir solingan bo'lsa, undan so'ng esa siqish dasturini ishga tushiring.



Elektr ta'minoti bo'lmagan hollarda

Joriy dastur va unung sozlari faqatgina qisqa vaqt davomida saqlanib qoladi xolos. Ehtimol, dastur va uning sozlarini qaytadan kiritishga to'g'ri keladi.

Dastur ishlab turgan paytda elektr ta'minoti o'chsa mashinaning eshikchasi mexanik tarzda qulflanadi. Eshikchani kuyishlardan saqlanish uchun faqat lyukda suv sathi kuzatilmaydigan holdagina ochish mumkin bo'ladi xolos!

Suv sathini «Nasos filtri» bo'limida ko'rsatilganidek pasaytirish mumkin. Bundan so'ng xizmat ko'rsatish lyukchasi tagidagi richagni tortish mumkin, va eshikcha ohista tiqilash bilan ochiladi. Keyin hamma tarkibiy qismlarni joyiga o'rnatish lozim.

Nosozliklarni Aniqlash Va Bartaraf Qilish

Displayda ramz ko'rsatilmagan holatda nosozliklarni aniqlash va bartaraf qilish


Muammo	Sabab	Hal qilish
Kir yuvish mashinasi ishlamayapti.	Dastur ishga tushirilmagan. Eshikcha zich yopilgan. Mashina yoqilmagan. Elektr ta'minoti yo'q.	«Start/Pause» tugmachasini bosing. Eshikchani zichlab yoping. Mashinani yoqing. Elektr ta'minoti mavjudligini tekshiring.
Kir yuvish mashinasiga Suv to'lmayapti.	Dasturlanmagan. Suv ta'minoti berkitilgan. Suv keluvchi shlang siqilgan. Suv keluvchi shlang filtri ifloslangan. Suv bosimi 0,03 MPa dan past. Suv ta'minoti yo'q.	Dasturni tanlab uni ishga tushiring. Suv kelish kranini ko'zdan kechiring. Suv keluvchi shlangni tekshiring. Suv keluvchi shlang filtrini tozalang. Suv bosimini tekshiring. Suv ta'minotini tekshiring.
Mashinaga suv to'ldirilganda undan suv t o'kilib tushadi.	Suv to'kish shlangining uchi 80 sm dan yuqori balandlikda. Suv to'kish shlangi uchi suvga tegishi mumkin.	Suv to'kish shlangi to'g'ri o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling.
Suv to'kish ishlamaydi.	Nasos filtr ining ifloslanishi. Suv to'kish shlangining uchi poldan 100 sm dan ortiq balandlikda joylashgan. Suv to'kish shlangi to'silgan.	Nasos filtrini tozalang. Suv to'kish shlangining to'g'ri o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling. Suv to'kish shlangi to'sig'ini olib tashlang.
Aylanishdagi tebranishlar.	kuchli Mashinaga haddan ziyod kir yuklangan. Kir yuvish mashinasi notekis yuzaga o'rnatilgan yoki unung holati sozlanmagan. Transportirovka boltlari yecib olinmagan.	Kiringiz miqdorini tegishli holatga o'zgartiring. Kir yuvish mashinasini tekis polga o'rnatib uning holatini sozlang. Barcha transportirovka boltlarini yechib oling.
Kir yuvish davri tugamasdan jarayon to'xtayapti.	Suv yoki elektr energiyasi kelmayapti.	Suv va elektr energiyasi ta'minotini tekshiring.
Jarayon ma'lum bir vaqtga to'xtayapti.	Displayda xato ramzi aks etadimi? Bu hol uvitish davri mobaynida yuzaga keladimi? Dasturni to'xtatsh.	Displayni faollashtiring —«Display» bo'limiga qarang. Jarayonni qayta ishga tushirish uchun «Start/Pause» tugmachasini bosing. Zarur hollarda mashinani to'xtatin.
Barabanda va/yoki yuvish vositasi konteynerida haddan ortiq ko'pik paydo bo'lmoqda.	Haddan tashqari ko'p yuvish vositasi solingan.	Yuvish vositasidan foydalanishga oid tavsiyalar bilan tanishing. Yuvish vositasi miqdorini kamaytiring.
Kir yuvish vaqtini avtomatik tarzda muvofiqlashtirish.	Ish jarayonida dastur davomiyligi avtomatik tarzda muvofiqlashtirilishi mumkin.	Bu tabiiydir va mashinaning ishlashiga ta'sir etmaydi.
Siqish jarayoni ishga tushmayapti.	Kirning noto'g'ri taqsimlanishi.	Mashina va kiring yuklanganligini tekshiring, so'ngra siqish dasturini qaytadan ishga tushiring.



Umumiy ma'lumot va maslahatlar:

Agar siqish paytida ko'p miqdorda ko'pikning paydo bo'lishi kuzatilsa, dvigatel to'taydi, va 90 soniyaga suv to'kish nasosi ishga tushadi. Agar shunday tarzda 3 marta urinishda ko'pik yo'q bo'lmasa, dastur siqish jarayonini bajarmasdan tugatiladi.

Nosozliklarni Aniqlash Va Bartaraf Qilish



Tayyorlash

Hamma qadoqlash materiallari, shuningdek penoplast taglikni olib tashlang. Qadoq ochilganda plastic xaltacha va lyukda suv tomchilarini kuzatish mumkin. Bu tabiiy bo'lib havo o'tkizmaslik holatini tekshirish bo'yicha o'tkazilgan sinovlar natijasidir.

Transportirovka boltlarini burab oling.

Bu transportirovka boltlari transportirovka jarayonida mashina ichidagi tebranishga qarshi komponentlarni mahkamlash uchun mo'ljallangan.

Orqa tomondagi boltlarni burab oling va mashinadan yelim ajratgichlarni chiqarib oling.



Umumiy ma'lumot va maslahatlar:

Transportirovka boltlarini keyinchalik ishlatilishi mumkinligini hisobga olib ishinchli joyga joylashtiring.

Agar mashinani boshqa joyga ko'chirib o'tish zararati paydo bo'lsa transportirovka boltlarini teskari tartibda qayta o'rning

Orqa qopqoqni ikki tirqishga qavariq tomonini tashqariga qilib qayta o'rning.

Oyoqchalarni sozlash


Mashinani barqaror holatga keltirish uchun unung oyoqchalarini sozlang. Bu tebranish va zirillashlarni kamaytirish imkonini berib, buning natijasida ishlash paytidagi shovqinni kamaytiradi. Bundan tashqari, bu mashinaning yeyilishini kamaytiradi. Mashinani imkon qadar tekis va yassi polga o'rnatish lozim.

O'rnatish

Suv uzatish shlangi — Suvni nazorat qilish sistemasi

AsuaStop suv uzatish shlangi — xavfsizlik va umumiy nazoratni ta'minlovchi himoyaning muhim elementi hisoblanadi. Unda o'rnatilgan klapanlar suv uzatilishini boshqarib suv sirqishi ro'y bergan hollarda avtomatik ravishda berkitiladi.

1. Suv uzatish shlangidagi gaykani suv klapaniga burang.
2. Suv uzatish shlangini kranga ulang.



UZB



Diqqat!

*Mashina faqat sovuq suv uzatilishiga mo'ljallangan!
Mashina yig'indisiga qo'shib beriladigan shlanglar to'plamidan foydalaning.
Eski shlanglardan foydalanmang.*




Suv to'kish shlangi

Сливной шланг можно смонтировать несколькими способами. Однако в любом случае высота установки шланга должна достигать 80-100 см хотя бы в одной точке. Нельзя перекручивать, сгибать и пережимать сливной шланг. По возможности шланг следует закрепить на задней стенке машины.


1. Сливной шланг к раковине.

Закрепите конец сливного шланга с помощью специального кронштейна таким образом, чтобы он не был погружен в воду. Надежно закрепите кронштейн во избежание его падения при движении в процессе работы.



2. Suv to'kish shlangini* suv to'kish sifoniga ulash.

Ulanish joyi havo o'tmaydigan qilib sifon ustidagi tegishli o'tkazgichga yaxshilab mahkamlanishi lozim.



O'rnatish

3. Suv to'kish shlsngini suv to'kish quvuriga ulash.

Maxsus kronshteyn yordamida suv to'kish shlangi uchini mahkamlang.


Ish jarayonida harakatlanish natijasida tushib ketmasligi uchun kronshteynni yaxshi mahkamlang.



Diqqat!

Suv to'kish shlangi suvga botmasligi lozim; suv cirqim chiqmasligi uchun uni yaxshilab mahkamlang. Agar suv to'kish shlangi polda bo'lsa yoki quvur 80 sm dan kam balandlikda bo'lsa, kir yuvish mashinasiga suv to'ldirilayotganida suv undan oqib chiqishi mumkin (sifon effekti).


Suv to'kish shlangining uzaytirilishiga yo'l qo'yilmasin. Zarur hollarda sotuvdan keying xizmat ko'rsatish bo'limiga murojaat qiling.



Elektr tarmog'iga ulash

Ulashdan oldin quyidagilarni tekshiring:

- Rozetka maksimal quvvatga mos kelishini,
- Kuchlanishning talablariga muvofiq kelishini,
- Rozetka standartining mashina shtepseliga muvofiq kelishini,
- Rozetkaning yerga ulanganligini.



Texnik ma'lumotlar

Buyumning asosiy texnik xususiyatlari

HW60-10266A
HW60-12266AS

Kuchlanishi	220–240 V o'zg. tok, 50 Gs
Maks. ish toki (A)	10
Suv bosimi (MPa)	$0,03 < P < 1$
Nominal sig'imi (kg)	6
Aylanish tezligi (davr/daq)	1000 / 1200
Yuvish dasturlari miqdori	16
Maksimal quvvati (Vt)	2000
O'lchamlari (BxChxK mm)	850 x 510 x 595
Sof og'irligi (kg)	64
O'chiq holatdagi energiya iste'mol qilishi (Vt)	0,48
Yoqiq holatdagi energiya iste'mol qilishi (Vt)	0,48

Haier

Производитель:

«Haier Overseas Electric Appliances Corp. Ltd»
Хайер Оверсиз Электрик Апплаенсиз Корп. Лтд
Адрес:

Room S401, Haier Brand building, Haier Industry park
Hi-tech Zone, Laoshan District Qingdao, China
Рум S401, Хайер бренд билдинг, Хайер индастри парк
Хай-тек зон, Лаошан дистрикт, Циндао, Китай

Предприятие-изготовитель:

«Haier Overseas Electric Appliances Corp. Ltd»
Хайер Оверсиз Электрик Апплаенсиз Корп. Лтд
Адрес:

Room S401, Haier Brand building, Haier Industry park
Hi-tech Zone, Laoshan District Qingdao, China
Рум S401, Хайер бренд билдинг, Хайер индастри парк
Хай-тек зон, Лаошан дистрикт, Циндао, Китай

Импортер:

Филиал ООО «ХАР» в Красногорском р-не МО
Адрес импортера:
143442, Московская область, Красногорский район,
с/п Отраденское, 69 км МКАД, офисно-
общественный комплекс ЗАО "Гринвуд", стр. 31.

Ishlab chiqaruvchi:

«Haier Overseas Electric Appliances Corp. Ltd»
Xayer Oversiz Elektrik Applianses korp., LTD

Manzil:
Room S401, Haier Brand building, Haier Industry park Hi-
tech Zone, Laoshan District Qingdao, China
Rum S401, Xayer Brand Bilding, Xayer Indastri Park, Xay-
tech Zon, Laoshan District Sindao, Xitoy

Ishlab chiqaruvchi -korxon:

«Haier Overseas Electric Appliances Corp. Ltd» / Xayer
Oversiz Elektrik Applianses korp., LTD

Manzil:
Room S401, Haier Brand building, Haier Industry park Hi-
tech Zone, Laoshan District Qingdao, China
Rum S401, Xayer Brand Bilding, Xayer Indastri Park, Xay-
tech Zon, Laoshan District Sindao, Xitoy

